O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Matchanova Guloro
Xorazm viloyati Xonqa tumani
27-son umumta'lim maktabi
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta’lim jarayonida zamonaviy metodlardan unumli foydalanish usullari hamda ta’lim sifatini oshirishga hizmat qiluvchi metodlar haqida ma’lumot beriladi.*

Kalit so’zlar: *metod, interfaol, “Halollik” metodi, dars bosqichlari.*

Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Hozirda interfaol ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Quyida siz aziz o‘qituvchilarga tavsiya qiladigan yangi interfaol metodimizni “Halollik” deb nomlandi.

Yangi interfaol ta’lim metodining tavsifi: Ushbu metod yordamida o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish, darsda vaqtdan unumli foydalanish, o‘quvchilarni darsga qiziqishini oshirish va rag‘batlantirish, deyarli barcha fanlar va darslarda qo‘llash mumkinligi, ta’lim sifatining oshirilishiga erishish va o‘qituvchi ishining sezilarli darajada engillashishiga yordam beradi. Bundan tashqari “Halollik” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, Darsning qaysi qismida qo‘llash mumkinligi: darsning takrorlash, yangi mavzuni mustahkamlash va uyga vazifa berish qismlarida qo‘llash mumkin.

“Halollik” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi: 1. Ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi. 2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda –yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi. 3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Halollik” – Har bir o‘quvchi mustaqil ravishda uyda yoki dars jarayonida sharoitga qarab 3-5 tadan savol tuzadi va tuzgan savollarini boshqa o‘quvchi bilan almashadi. Bir o‘quvchi tuzgan savollarga boshqa o‘quvchi o‘z javobini yozadi va savollar kartochkasi o‘z egasiga qaytariladi. O‘quvchilar bir-birini javoblarini tekshirib ko‘rishgach to‘g‘ri javoblarni yozishadi. Natijalar e’lon qilinadi va o‘quvchilar o‘z xatolarini anglab olishadi. Yuqori natija ko‘rsatgan o‘quvchilar baholanadi. “Halollik” metodining yozma va og‘zaki shakllaridan foydalanish mumkin. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

“Halollik” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. G’ulomov. Ona tili o’qitish prinsiplari va metodlari. –T.: “O’qituvchi”, 1992.

2. P. Ishmuhamedov. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. –T.:”Adabiyot ucqunlari”, 2017.